

**ISSN:3060-4567 Modern education and development**  
**DEVELOPMENT OF RELATIONS WITH THE REPUBLIC OF**  
**TURKEY UNDER THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF**  
**UZBEKISTAN SHAVKAT MIRZIYOYEV.**

*Alibayev Behruz Farxod o'g'li*  
*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti*  
*Tarix yo'nalishi*  
*2-bosqich magistranti*  
*E-mail: alibayevbehruz@mail.ru*

*+998996714941*

***Shadiyev Safarboy***  
*Alfraganus universiteti*  
*Tarix fanlarni Dotsenti*  
*taqrizi asosida*

***Abstract:*** *In this article, after the election of Shavkat Mirziyoyev to the post of the President of the Republic of Uzbekistan, the restoration of relations with the state of Turkey, development, strengthening of relations, and rapid growth in the directions of mutual relations are analyzed.*

***Keywords:*** *Uzbekistan, Turkey, Shavkat Mirziyoyev, diplomatic relations, visits, decrees, cooperation, economy, visa.*

**РАЗВИТИЕ ОТНОШЕНИЙ С ТУРЕЦКОЙ РЕСПУБЛИКОЙ**  
**ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ШАВКАТЕ**  
**МИРЗИЁЕВЕ**

***Аннотация:*** *В данной статье после избрания Шавката Мирзиёева Президентом Республики Узбекистан анализируется восстановление отношений с Турцией, развитие, укрепление связей, быстрый рост по направлениям взаимоотношений.*

**Ключевые слова:** *Узбекистан, Турция, Шавкат Мирзиёев, дипломатические отношения, визиты, указы, сотрудничество, экономика, виза.*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT  
MIRZIYOYEV DAVRIDA TURKIYA RESPUBLIKASI BILAN  
MUNOSABATLARNING RIVOJLANISHI**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangandan so‘ng Turkiya davlati bilan munosabatlarni qaytadan tiklanishi, rivojlanishi, aloqalarni mustahkamlanishi, o‘zaro munosabat yo‘nalishlarida ildam birlashib yuksalishlari tahlil etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘zbekiston, Turkiya, Shavkat Mirziyoyev, diplomatik aloqalar, tashriflar, farmonlar, hamkorliklar, iqtisodiyot, viza.*

**Kirish:** 2016-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev lavozimiga saylangandan so‘ng O‘zbekiston va Turkiya davlati diplomatik aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Ya‘ni ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar, muntazam rasmiy tashrif uchrashuvlari, o‘zaro samimiy muloqotlar hamkorlik rivojiga katta turtki bermoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi ilk uchrashuv o‘zaro do‘stona munosabatlarning yangi darajaga olib chiqdi. Zero, “O‘rtamizda ishonchsizlik va sovuqchilik davrlari bo‘lgan edi, lekin biz birlashib, ushbu muzlarni eritdik va bu sovuqchilik endi hechqachon qaytmaydi”, deb ta‘kidladi O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev(1). Bu uchrashuv ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlardagi nisbatan turg‘unlik davridan keyingi birinchi oliy darajadagi o‘zaro hamkorlik bo‘lgani bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Bu O‘zbekistonning o‘tgan yillardagi munosabatlari nisbatan sust bo‘lib kelgan Turkiya bilan aloqalarini jonlantirish va mustahkamlash niyatidan yaqqol dalolat berdi.

Shavkat Mirziyoyev va Turkiya prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘on o‘rtasida ko‘plab oliy darajadagi uchrashuvlar savdo hajmi sezilarli darajada oshdi, asosiy e‘tibor ikki davlatning bir-birining bozorlariga kirishini

kengaytirishga qaratildi. 2016-yildan boshlab ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi tez o'sib, 2023-yilga kelib 3 milliard dollardan oshib ketdi(2). Jumladan 2022-yilda Turkiyadan import qilish 144 498,52 AQSH dollarini tashkil etdi, eksport esa 121 611,80 AQSH dollari<sup>1</sup>.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 25–26-oktabrdagi Turkiyaga tashrifi ikkala mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanib borayotganidan dalolat beruvchi tarixiy voqea bo'ldi. O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyevni Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an iliq kutib oldi va tashrif buyurgan davlat rahbariga to'liq ehtirom ko'rsatildi. Bu tashrif O'zbekiston rahbarining Turkiyaga qariyb yigirma yil ichida amalga oshirgan ilk rasmiy tashrifi bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning yangi davri ramzi bo'ldi. Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" eng muhim kelishuvlar qatorida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro sarmoyalarni ko'paytirish va savdo aylanmasini kengaytirish bo'yicha aniq qadamlarni belgilab berdi. Sayohat chog'ida 20 dan ziyod hujjatlar qabul qilinib iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yo'llarini muhokama qilindi va qo'shma korxonalar yaratish imkoniyatlarini o'rgandi(3).

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 21-oktabr kuni «Turkiya Respublikasi fuqarolari uchun viza jarayonlarini soddalashtirish to'g'risida»gi PQ-3347 sonli qarori(4). Bu qaror Mirziyoyev prezidentligi davrida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari kuchayib borayotganini aks ettiruvchi O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirish bo'yicha muhim qadam bo'ldi.

Turkiya fuqarolari uchun viza tartibini soddalashtirish qarori ikki xalq o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilganini alohida ta'kidladi. Bu O'zbekistonning xalqlar o'rtasidagi almashinuvni rivojlantirish hamda mintaqaviy va jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuviga intilishidan dalolat beradi.

---

<sup>1</sup> Tashqi iqtisodiy faoliyat (stat.uz)

Shavkat Mirziyoyev Prezidenti lavozimiga saylangandan Turkiya davlati bilan munosabatlar o'zgacha ruh ola boshladi. Jumladan, 2016-yil noyabr kuni Samarqandda bo'lib o'tgan uchrashuv, 2017-yil may oyida Xitoyning Piken poytaxtida o'tkazilgan "Bir makon, Bir yo'l" forumida, 2017-yil 20-sentabrda BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqidan so'ng Turkiya Respublikasi Prezidenti Erdog'an rahbarlari ikki tomonlama aloqalar istiqbollari to'g'risida fikrlashdilar. Ushbu uchrashuvlar ikki davlatlarning iliqlashi bilan birga savdo to'siqlarini kamaytirish, bojxona tartib-taomillarini takomillashtirish, turk kompaniyalaridan O'zbekistonga sarmoyalarni jalb qilish qaratildi(5).

2017-yilning 11-dekabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi. Bu suhbat ikki davlat o'rtasidagi yaqin munosabatlarni saqlab qolish va mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlarning bir qismi bo'lib, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida sezilarli jonlanish kuzatildi. Har ikki prezident O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi savdo va sarmoya hajmini oshirish muhimligini ta'kidladilar. Ular amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalarni ko'rib chiqdilar va hamkorlikning yangi imkoniyatlari, xususan, qurilish, energetika, qishloq xo'jaligi va to'qimachilik kabi sohalarda hamkorlik qilish imkoniyatlarini muhokama qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'on 2018-yilning 29-aprel kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Ushbu tashrif davomida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Erdo'g'an savdo, sarmoya, ta'lim, madaniyat va xavfsizlik kabi turli sohalardagi hamkorlikni kengaytirishni muhokama qildi. Ikki davlat rahbarlari ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni ta'kidlab, iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish va madaniy almashinuvlarni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha shartnomalarni imzoladilar. O'tgan yil mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlar yangi strategik bosqichga ko'tarildi. O'zaro sa'y-harakatlar tufayli tovar ayirboshlash hajmi sezilarli

darajada o‘sdi. Imzolangan hujjatlar samarasida xalqlarimiz o‘rtasidagi bordi-keldi yengillashdi. Oliy darajadagi navbatdagi muzokaralar xalqlarimiz manfaatiga xizmat qilayotgan ushbu ezgu ishlar sur‘atini yanada oshirishiga ishonchim komil, – dedi Shavkat Mirziyoyev<sup>2</sup>. “Xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlari yuzasidan fikr almashiladi. Sammit yakunida Qo‘shma bayonot va qator ikki tomonlama hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan”, — deyiladi(6).

O‘zbekiston va Turkiya davlati diplomatik aloqalar keying yillar davomida kengayib, o‘zaro tovar ayirboshlash 2,5 barobarga o‘sib, 3,6 milliard dollardan oshdi. Qo‘shma korxonalar soni 5 barobar ko‘payib, 2 mingdan ortdi. Investitsiyaviy hamkorlik ko‘rsatkichlari 70 barobarga o‘sdi. O‘zbekiston va Turkiya davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik oshirish yo‘lida qator hujjatlar imzolandi.

Jumladan:

- Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim;
- Davlat chegaralari orqali tovarlar va transport vositalarining o‘tishi haqida oldindan axborot almashish to‘g‘risidagi bayonnoma;
- Mehnat va bandlik sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi anglashuv memorandumi;
- Sud ekspertizasi sohasida hamkorlik memorandumi;
- Qurilish sohasida anglashuv memorandumi;

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Shavkat Mirziyoyev raisligida Turkiya Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi ikki tomonlama munosabatlarda o‘zgarishlar davrini boshlab berdi, munosabatlarni yangi strategik bosqichga ko‘tardi. O‘zaro munosabatlar oddiy diplomatik aloqalardan iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarni qamrab oluvchi ko‘p qirrali strategik sheriklikka o‘tdi. Turkiya prezidentining so‘nggi tashrifidan so‘ng Prezidentimiz —Sizning tashrifingiz hamkorligimiz uchun yangi va yuksak

---

<sup>2</sup> <http://www.ddsmfa.uz/uz/ozbekiston-turkiya-ozaro-ishonch-va-dostlikka-asoslangan-hamkorlik-jadal-rivojlanmoqda>

imkoniyatlar yaratishga juda katta hissa qo‘shadi. Ota yurtingiz eshiklari Siz va barcha turkiyalik qardoshlarimiz uchun doimo ochiq - deya ta‘kidladilar.

Bu aloqalar rivojlanishda davom etar ekan, ular muhim o‘zaro manfaat va O‘zbekistonning kengroq mintaqaviy va jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuvini va‘da qilmoqda, Turkiya esa bu yo‘lda asosiy hamkor sifatida qaraldi .

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Quronov M. Qardoshlik va hamkorlik tantanasi // «O‘zbekiston ovozi». 2018-yil 3-mart
2. <https://www.trt.net.tr/uzbek/dasturlar/2022/03/30/o-zbekiston-xabarlar-30-qism-1804387>
3. Shukurzoda, Mavlon Qardosh va qondoshlar hamkorligining keng qamrovli strategik sheriklik ufqlari [Matn] / – T.: «Niso Poligraf», 2023 B-69
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/10/22/turkiya/>
5. Rajabov Q., Bekmuratov X. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlik tarixidan. – Toshkent: «Tafakkur», 2017
6. <https://daryo.uz/2022/03/28/shavkat-mirziyoyev-taklifiga-binoan-turkiya-prezidenti-29-mart-kuni-ozbekistonga-keladi>.
7. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turkiya/2022/03/29/prezident-erdo-g-an-ozbekistonda-1803817>